OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA BOTANIKA FANINI O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISHDA QO'LLANILADIGAN INNOVATSION METODLAR

Qayumova Mohinur Karim qizi

Navoiy Davlat Pedagogika Instituti magistranti

Annotasiya: Ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalarida botanika fanini o‘qitishda "Aqliy hujum"metodining qo'llash usullari, ahamiyati haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: Aqliy hujum, keys study, BBB, insert, ta'limi texnologiyalari, og'zaki aqliy hujum, yozma aqliy hujum.

Аннотация: В данной статье представлена информация о значении метода «Мозговой штурм» при преподавании ботаники в высших учебных заведениях.

Ключевые слова: Мозговой штурм, кейс-стади, ВВВ, вкладыш, образовательные технологии, устный мозговой штурм, письменный мозговой штурм.

Abstract: This article provides information on the importance of the “Brainstorming” method in teaching botany in higher education institutions.

Keywords: Brainstorming, case study, BBB, insert, educational technology, oral brainstorming, written brainstorming.

Bugungi kunda zamonaviy pedagog faoliyatining eng muhim tomoni o'quv faoliyatini samarali va sifatli tashkil etishdir. Bu maqsadga erishish uchun ta'limda innovatsion metodlari keng qo‘llaniladi. Bugungi kunda ta'lim tizimida "Sinkveyn", "Keys study"," Insert","BBB","Aqliy hujum" kabi metodlardan keng qo'llaniladi. Quyida oliy ta’lim muassasalarida botanika fanini o‘qitishda "Aqliy hujum"metodini qo'llashning afzalliklari bilan tanishib chiqamiz.

“Aqliy hujum” metodi - biror muammo bo‘yicha ta’lim oluvchilar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to‘plab, ular orqali ma’lum bir yechimga kelinadigan metoddir. “Aqliy hujum” metodining yozma va og‘zaki shakllari mavjud. Og‘zaki shaklida ta’lim beruvchi tomonidan berilgan savolga ta’lim oluvchilarning har biri o‘z fikrini og‘zaki bildiradi.Ta’lim oluvchilar o‘z javoblarini aniq va qisqa tarzda bayon etadilar. Metodning ushbu shaklidan asosan, ma'ruza darslarining kirish qismida, amaliy mashg'ulotlarning o'tgan mavzuni takrorlash yoki yangi mavzuni mustahkamlash qismlarida keng foydalaniladi.

Yozma shaklida esa berilgan savolga ta’lim oluvchilar o‘z javoblarini qog‘oz kartochkalarga qisqa va barchaga ko‘rinarli tarzda yozadilar.Javoblar doskaga(magnitlar yordamida yoki ignalar yordamida) mahkamlanadi. “Aqliy hujum” metodining yozma shaklida javoblarni ma’lum belgilar bo‘yicha guruhlab chiqish imkoniyati mavjuddir. Ushbu metod to‘g‘ri va ijobiy qo‘llanilganda shaxsni erkin,ijodiy va nostandart fikrlashga o‘rgatadi. Metodning ushbu shaklidan "Poyaning ichki tuzilishi", "Barg anatomiyasi" kabi asosan, anatomik mazmundagi darslarda keng foydalanish mumkin.

“Aqliy hujum”metodidan foydalanilganda ta’lim oluvchilarning barchasini jalb etish imkoniyati bo‘ladi, shu jumladan ta’lim oluvchilarda muloqot qilish va munozara olib borish

madaniyati shakllanadi. Ta’lim oluvchilar o‘z fikrini faqat og‘zaki emas, balki yozma ravishda bayon etish mahorati,mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko‘nikmasi rivojlanadi.Bildirilgan fikrlar baholanmasligi ta’lim oluvchilarda turli g‘oyalar shakllanishiga olib keladi. Bu metod ta’lim oluvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun xizmat qiladi. “Aqliy hujum” metodi ta’lim beruvchi tomonidan qo‘yilgan maqsadga qarab amalga oshiriladi:

Ta’lim oluvchilarningboshlang‘ich bilimlarini aniqlash maqsad qilib qo‘yilganda, bu metod darsning mavzuga kirish qismida amalga oshiriladi. Masalan, auditoriyaga "Ildizning birlamchi va ikkilamchi tuzilishi haqida nimalarni bilasiz?" "Dixotimik shoxlanishga misollar keltiring" kabi savollar beriladi.

Mavzuni takrorlash yoki bir mavzuni keyingi mavzu bilan bog‘lash maqsad qilib qo‘yilganda-yangi mavzuga o‘tish qismida amalga oshiriladi. "Simoz" gullarga misollar keltiring, " Bargning mexanik to‘qimasi qanday hujayralardan tuzilgan?" kabi savollardan foydalaniladi.

O‘tilgan mavzuni mustahkamlash maqsad qilib qo‘yilganda mavzudan so‘ng,darsning mustahkamlash qismida amalga oshiriladi. "Poyaning periderma to'qimasi haqida nimalarni bilib oldingiz?", " Gul formulasidan foydalanib, uning tuzilishi haqida nimalarni bilib oldingiz?" kabi savollar bilan auditoriyaga murojaat qilinadi.

“Aqliy hujum”metodini qo‘llashdagi asosiy qoidalar:

1.Bildirilgan fikr-g‘oyalar muhokama qilinmaydi va baholanmaydi.

2.Bildirilgan har qanday fikr-g‘oyalar,ular hatto to‘g‘ri bo‘lmasa ham inobatga olinadi.

3. Har bir ta’lim oluvchi qatnashishi shart. Quyida “Aqliy hujum”metodiningtuzilmasi keltirilgan. Muammoli savol beriladi. Fikr va g‘oyalar eshitiladi va jamlab boriladi.Fikr va g‘oyalar guruhlanadi.Aniq vato‘g‘ri javob tanlab olinadi.

“Aqliy hujum”metodining tuzilmasi.

“Aqliy hujum”metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

Ta’lim oluvchilarga savol tashlanadi va ularga shu savol bo‘yicha o‘z javoblarini (fikr,g‘oyava mulohaza)bildirishlarini so‘raladi;

Ta’lim oluvchilar savol bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalarini bildirishadi;

Ta’lim oluvchilarning fikr g‘oyalari(magnitafonga,videotasmaga,rangli qog‘ozlarga yoki doskaga) to‘planadi;

Fikr-g‘oyalar ma’lum belgilar bo‘yicha guruhlanadi;

Yuqorida qo‘yilgan savolga aniq va to‘g‘ri javob tanlab olinadi.“Aqliy hujum”metodining afzalliklari:

natijalar baholanmasligi ta’lim oluvchilarda turli fikr-g‘oyalarning shakllanishiga olib keladi;

ta’lim oluvchilarning barchasi ishtirok etadi;

fikr-g‘oyalar vizuallashtirilib boriladi;

ta’lim oluvchilarning boshlang‘ich bilimlarini tekshirib ko‘rish imkoniyati mavjud;

ta’lim oluvchilarda mavzuga qiziqish uyg‘otadi.

“Aqliy hujum”metodining kamchiliklari:

ta’lim beruvchi tomonidan savolni to‘g‘ri qo‘ya olmaslik;

ta’lim beruvchidan yuqori darajada eshitish qobiliyatining talab etilishi.

Demak, zamonaviy ta’lim metodlari ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi, ta'lim oluvchilarning erkin fikrlashini oshiradi, bilimlarni mustahkam o'zlashtirish, ulardan amaliyotda mustaqil foydalanish ko'nikma va malakalarini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES):

1.Innovasion ta’lim texnologiyalari/MuslimovN.A., UsmonboyevaM.H., SayfurovD.M., To‘rayev A.B.–T.:“Sanostandart”nashriyoti,2015.–81-b.

2.Ishmuhamedov R.J. Innovasion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorliginioshirish yo‘llari /O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari o‘qituvchilariningmalakasini oshirish va qayta tayyorlash fakulteti tinglovchilari, akademik lisey va kasb-hunar kollejlari o‘qituvchilari uchun uslubiy tavsiyalar.–T.:TDPU,2004.

3.Zamonaviy ta’lim metodlari–ta’lim samaradorligi kafolati

https://doi.org/10.24412/2181-1784-2022-20-181-188 Musurmonov Raxmatilla OtaqulovA.,KurbanbayevaN. UsarboevaD.U. Chirchiq davlat pedagogika instituti